

NO **BIZ KORRUPSIYAGA QARSHIMIZ!** **CORRUPTION**

"Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining barcha qatlamlari, eng yaxshi mutaxassislar jalb qilinmas ekan, jamiyatimizning barcha a'zolari, ta'bir joiz bo'lsa, "halollik vaksinasi" bilan emlanmas ekan, o'z oldimizga qo'ygan yuksak marralarga erisha olmaymiz. Biz korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan uning barvaqt oldini olishga o'tishimiz kerak"


Sh. Mirziyoev



Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda adolat, ochiqlik va xolislik - muhim tamoyillardir!



"NKMK" AJ Kuzatuv kengashining 2024-yil 7 iyundagi 4-son bayonnomasi bilan tasdiqlangan "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati va uning tarkibiy bo'linmalarida manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish to'g'risida N I Z O M



"NKMK" AJ Kuzatuv kengashining 2024-yil 7 iyundagi 4-son majlis bayonnomasi bilan tasdiqlangan "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati xodimlarining ODOB-AXLOQ KODEKSI



Manfaatlar to'qnashuvi - korrupsiyaga yo'l ochadi. Bunga yo'l qo'ymang!



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI MANFAATLAR TO'QNASHUVI TO'G'RISIDA O'RQ-931-son

3-modda. Asosiy tushunchalar

Manfaatlar to'qnashuvi — shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlar o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat;

Yaqin qarindoshlar — ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari.

8-modda. Davlat organi yoki boshqa tashkilot xodimining faoliyatida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha cheklovlar;

- biri boshqasiga bo'ysunuvchi yoki biri boshqasining nazoratidagi tashkilotlarda o'rindoshlik bo'yicha ishlashga, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno;

Tijorat tashkilotlarining ta'sischisi (aksiyadori, ishtirokchisi) bo'lishga, bundan aksiyadorlik jamiyatlarining erkin muomalada bo'lgan aksiyalarining o'n foizigacha egalik qilish hollari mustasno.

"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" aksiyadorlik jamiyati xodimlariga Boshqaruv raisi-Bosh direktorning M U R O J A A T I bilan Kombinatning rasmiy veb-sayti orqali tanishing!

Korrupsiya bilan bog'liq holatlarga duch kelsangiz 79-227-72-22 raqamiga qo'ng'iroq qilishingiz mumkin.